XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 11 - sentabr VI-69-112-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumani mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksining 126-moddasiga muvofiq tuman budejetining 2023-yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakllangan mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumani mahalliy budjetining joriy yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi **jami 2 284 600,0 ming so‘mni** tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Joriy yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan **jami 217 955,0 ming so‘m mablag‘** ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali

foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman kengash raisi **Sh.A.Rajabov**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023-yil 11-sentabrdagi
VI-69-112-8-113-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qiziriq tumani mahalliy budjetining 2023-yil II-choragida daromadning orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/r	Tashkilotlar nomi	Ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming so‘mda)	Foiz hisobida
A	**1**	**2**	**3**	**4**
Jami shakllangan manba			**2 284 600,00**	**100%**
Jami ajratiladigan mablag‘:			**217 955,00**	**9,5 %**
1	Tuman hokimliigiga	Tuman hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalarri bo’yicha o’rinbosari O.Poyonov va tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy masalalari bo’yicha o’rinbosari Z.Rahmatovlarni moddiy rag‘batlantirish xarajatlari uchun	14 955,0	0.7 %
2		Aloqa xizmati uchun (telefonlar, hokim yordamchilariga internet uchun)	25 000,00	1,1 %
3		“Globol-Tezkor-Qurilish”ga tuman hokimligi hojatxonasini ta’mirlashdan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun	10 000,00	0,4 %
4		“SMART MILLENIUM TRADE”ga tuman hokiligiga olingan jihozlardan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun	45 000,00	2,0 %
5		“Ravnaq Diyor” xususiy korxonasiga ko‘p qavatli uylarni ta’mirlashda yuzaga kelgan qarzdorlik uchun	25 000,00	1,1%
6		Viloyat kompyuterlashtirish markaziga tuman hokimligiga ko'rsatilayotgan internet (server) xizmati uchun	50 000,00	2,2%
7		Tuman hokimligiga ish yurituvida foydalanish uchun konselyariya mollari xarid qilish uchun	8 000,00	0,4%
8		Televideniega tumanda nishonlanadigan bayram - tadbirlarni tasvirga olish uchun	25 000,00	1,1%
9	Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi kotibiyatiga	Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi kotibiyatiga xodimlarini rag‘batlantirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun	15 000,00	0,7%